
“3 dekabr - Xalqaro Nogironlar kuni” munosabati bilan Qo’shtepa tumanida tadbir o’tkazildi

2018 yil 3-dekabr kuni tumandagi Shodlik MFY xududidagi “Fayzu baraka” to’yxonasida **“3 dekabr- Xalqaro Nogironlar kuni”** munosabati bilan bayram tadbiri o’tkazildi.

Ushbu tadbirga tumandagi 125 nafar imkoniyati cheklangan fuqarolar bayram dasturxonini atrofiga to’plandilar.

Tadbir ishtirokchilariga tuman Madaniyat uyi san’atkorlari xamda tumandagi Musiqa maktabining iqtidorli-iste’dodli yoshlarining kuy va qo’shiqlari xavola etildi.

Bayram tadbirida tuman hokimligining o’rinbosarlari, jamoat tashkilotlarining vakillari qatnashdilar va tadbir ishtirokchilarini bayram bilan tabrikladilar.

Taklif etilganlarga tuman hokimligining esdalik sovg’alari xamda 2 nafar imkoniyati cheklangan fuqarolarga nogironlik aravachalari taqdim etildi.

Bayram ko’tarinki ruxda o’tdi. Tadbir jarayonlari tuman “Istiqbol yo’li” gazetasi xamda Farg’ona viloyat televideniyesi orqali yoritildi.

2018-12-06 09:16:10